

О`ЗБЕК ТИЛИДА МАҚОЛ ВА МАТАЛЛАРНИНГ О`РГАНЛИШ ТАРИХИ

Pardaboyeva Muxlisa Zokir qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

O`zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolamizda barqaror birliklarning tarkibiy qismini tashkil etuvchi somatik komponentli maqollar xususida soʻz yuritiladi va shu bilan birgalikda maqol va matallarning tarixiga, kelib chiqishiga nazar tashlanadi.

Kalit soʻzlar: barqaror birikmalar, maqol, matal, hikmatli soʻz, ibora, Mahmud Qoshgʻariy va uning “Devoni lugʻatit turk” asari

Maqol va matallar xalq ogʻzaki ijodining yorqin namunalari hisoblanadi desak mubolagʻa boʻlmaydi. Maqollar xalq tajribasidan oʻtgan, voqea-hodisalarning soʻzdagi oʻzgarmas ifodasidir. Mustaqillikka erishganimizdan soʻng xalq ogʻzaki ijodiga alohida eʼtibor qaratdi. Bu borada maqollarning ham chetda qolmaganligini koʻrishimiz mumkin. Hattoki, Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov “... agarki eʼtibor bersa, tilimizda halollik va poklik haqidagi ibratli hikmatlar bilan birga, “Yoʻlini topdimi, qandini ursin”, “Uzumini yeng-u, bogʻini surishtirmang” degan maqollar borligidan koʻz yumib boʻlmaydi” deya taʼkidlaganligini koʻrishimiz mumkin.

Maqollarning tarixiga nazar soladigan boʻlsak, Mahmud Qoshgʻariyning eng nodir asarlaridan biri “Devonu lugʻatit turk” asarini tahlilga tortmasdan boʻlmaydi. Bu asar Sharqiy Turkistondan Kasbiy dengizi boʻylarigacha boʻlgan ulkan hududda yashagan turkiy xalqlarning tili va madaniyatini oʻzida mujassamlashtirganligi bilan nihoyatda bebahodir. Mahmud Qoshgʻariy toʻplagan maqollar juda qadimdan turkiy tillarda mavjud boʻlgan va ular turli urugʻ va qabila vakillarida yozib olingan. Eng qadimgi turkiy xalqlarning til xususiyatlarini oʻrganishda bu materiallar katta ahamiyat kasb etadi. Maqollar hozirgi oʻzbek adabiy tilining rivojlanishida, til va meʼyorlarning oʻsishida alohida rol oʻynaydi. Ushbu maqolada “Devonu lugʻatit turk” asarida keltirilgan bir qancha maqollardan foydalanamiz. Bu borada lingvokulturologik obʼyekt boʻla oladigan maqollarni quyidagicha tahlil qilamiz: „Quruq qashuq agʻizga jaramas, quruq soʻz quloqqa jaqishmas“ (Quruq qoshiq ogʻizga yoqmas, quruq soʻz quloqqa yoqmas). Quruq qoshiqni ogʻizga solgan bilan qorin toʻymaydi. Shunga oʻxshab quruq soʻzdan ham naf yoʻq. Qoshiqni boshqa maqsadda emas, aynan taomlanish uchun ogʻizga solinishi kerakligini madaniyat jihatdan ham bogʻliqligini koʻryapmiz. Hozirda „Quruq qoshiq ogʻiz yirtar“ maqoli mavjud va u aynan oʻsha maʼnoni bermasa ham oʻzgargan holda yetib kelgan. „Quruq“ leksemasi bu yerda tarbiya, yoʻ odob, yoki biror kimga foyda, naf keltirmaydigan soʻz maʼnosida qoʻllanilyapti. „Oʻkuz azaqi boʻlgʻincha, buzagʻu bashi boʻlsa yik“ (Hoʻkizning

oyog'i bo'lguncha, buzoqning boshi bo'l). Kishining erki, mustaqilligi hamma narsadan muhim ekanligi „buzoqning boshiga“, bo'ysunish, tobelik „ho'kizning oyog'iga“ o'xshatilyapti. „Bosh“ leksemasi bu o'rinda yuqori, „oyoq“ leksemasi esa quyi ya'ni antonimlik – zidlik, qarama-qarshilik aks ettirilgan. „Bosh“ va „oyoq“ leksemasi ozodlik va qaramlikni ifodalash uchun ham qo'llanilyapti. „Ag'iz yesa ko'z uyalur“ (Og'iz yesa ko'z uyalur). Bu maqol birovning biror narsasini yeganlar uning hojatini chiqarishi lozimligini ko'rsatish uchun aytiladi. „Ko'z“ leksemasi birov bergan taomdan yegandan so'ng uning ishini bitirib berishligi, uyalish hissiyoti bilan bog'langan. Uyat, andisha turkiy xalqlar mentalitetiga xos bo'lgan etalon sanaladi. „Erik erni yag'lig', ermagu bashi kanlig“ – tirishqoqning labi yog'liq, erinchoqning boshi qonlik. Chunki tirishqoq ko'p ishlab, yaxshi taomlar, go'sht, yog'lar topadi. Erinchoq o'zining yalqovligi bilan ishdan qochadi. Xafalikdan boshini uradi, uni qonatadi. Izlik bo'lsa er o'ldirmas, ichlik bo'lsa at yag'rimas – choriq bo'lsa, odamning oyog'i og'rimaydi, to'qim bo'lsa ot yag'ir bo'lmaydi. Bu maqol ish ketini o'ylashga undab qo'llanadi. Erdam bashi til – odobning boshi til. Shirin tilli bo'lgan kishi yuqori martaba topadi. Madaniyatimizda bolalarga salom berishni, shirinso'z va muloyim bo'lishni o'rgatamiz. Yana yoshlikdan bolalarimizga kattalarga salom berishni, kichiklarni izzat qilishlikni o'rgatamiz. Bu maqol ham madaniyatimizning tildagi ifodasidir.

Bugungi kunda xalq og'zaki ijodi namunalaridan bo'lmish maqol va matallarni o'rganish ko'lamini kengaytmoqda. Nafaqat eski adabiyotlarda, balki yangi adabiyotlarimizda ham ko'plab maqol va matallardan foydalanilganining guvohi bo'lishimiz mumkin. Hatto bu mavzularda ko'plab dissertatsiyalar, ilmiy ishlar yoqlanmoqda. Bu albatta, og'zaki ijodimizni saqlab qolish va umrboqiy bo'lishiga sabab boladi desak mubolag'a bo'lmaydi.